

XIX ASR BOSHLARIDA SHARQIY BUXORO BEKLIKLARIDA IQTISODIY VA IJTIMOIY AHVOL

Xolmurodov Jamshid

Angor tuman 23 sonli o`rta maktab

tarix fani o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6651042>

Annotatsiya: O`rta Osiyo davlatlarining iqtisodi siyosati davri xos O`zbekiston tarixini mukammal o`rganish tufayli yangi voqea-hodisalarni tahlil etish, tarixni holisona, tanqidiy o`rganishga qiziqish oshib bormoqda. O`zbekiston tarixini XVIII-XIX asrlarga oid tarixi esa ayniqsa qiziqarli hamda tanqidiy o`rganishga molik tomonlari haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Chorizm, Sherobod, Denov, Boysun, «Maxov», Bandixon, Qiziriq, Kattaqum, Ko`hitang, Hisor, Bobotog`, urug`-qabilachilik

Chorizmning Markaziy Osiyoga bosqinchilik hujumi, maqsad va vazifalari xususida bir qator muhim tarixiy qarashlar mavjud. Ayniqsa Buxoro amirligi davlat boshqaruvi, uning iqtisodiy ahvoli haqidagi ma`lumotlar kitobxon uchun nihoyatda qiziqarli hamda jumboqlidir. Buxoro amirligidagi xo`jalik, iqtisodiy ishlab chiqarishning ahvoli, ma`muriy boshqaruv tizimidagi mukammal bo`lmagan siyosatlar haqida tarixiy fikr bildirish juda zarur. Chunki bu davr tarixini yozish nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega. Sababi rus sharqshunoslari tomonidan bayon etilgan fikrlar bir-biriga zid hamda noholisona yoritilishi bilan ajralib turadi.

O`rta Osiyo davlatlarining iqtisodi siyosati davriga xos Buxoro amirligi boshqaruv tizimi yetuk siyosiy tizimga ega emas hamda aniq bir tizimga solinmagan edi. Buxoro amirligida qishloq xo`jaligi asosan rivojlangan bo`lib, butun iqtisodiy tizim mamlakat ichki bozorini ta`minlashga moslashtirilib, qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat rivojlanmagan, qayta ishlovchi zamonaviy texnologiya yaratilgan emas edi. Bu soha bilan amirlik umuman qiziqmas hamda qo`llab-quvvatlanmas edi. Buxoro amirligida chorvachilik rivojlangan bo`lsada, chorva mollari soni-salmog`i ko`p bo`lsada, biroq chorvachilik sohasida jun, terini qayta ishlovchi soha ancha past rivojlanib, yangi texnologiya deyarli rivojlanmagan edi. O`rta Osiyo davlatlarining chorvachilik sohasida mayda hunarmandchilik, kasb-korlik ancha sekin holda edi. Qadimgi ishlab chiqarish usuli hukmron bo`lib, taraqqiyotga to`squinlik qilish orqada qolgan. Buxoro amirligida hunarmandchilik milliy talablar darajasida bo`lib, mahalliy hunarmandlar o`z mahsulotlarini ishlab chiqarishda oddiy kosibchilik e`tiqodlariga amal qilar edi. Temirchilik ustaxonalari o`zlarini mahsulot bilan ta`minlash, konlarda ruda, chet ellardan zargarlik uchun mahsulot olib kelishni o`z zimmlariga olgan, amirlik tomonidan hech qanday

moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlashga ega emas edilar. Shuni alohida qayd etish kerakki, hunarmandlar og'ir sharoitga qaramay, milliy urf-odatlarga mos buyumlar tayyorlab, o'zining mustahkamligi, nafis, go'zalligi, bozor talablariga xos bo'lishi bilan ajralib turar, usta va shogirdlar hurmat e'tibori ulug' va sinovlardan o'tish tufayli erishilar edi. Milliy urf-odatlarga e'tibor asosida tikilgan kiyimlari, gilamlar, taqinchoqlar jahon bozorlarida o'z xaridorlarini topib, o'z mavqeiga ega bo'lgan.

O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodi siyosati davriga talluqli Sharqiy Buxoro hududiga kirgan Sherobod, Denov, Boysun bekliliklaridagi ahvol tadqiqotning asosiy mavzusi bo'lib, bekliliklarda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ahvolni o'rganish darajasi diqqat markazda bo'ldi. Ayniqsa bekliliklardagi xalqning turmush darajasi, og'ir turmush tarziga oid manbalar haqida batafsil manbalar berildi. Denov, Sherobod bekliliklardagi dehqonlar ahvoli, soliq turlari, mahalliy amaldorlarni o'z boshimchaligi haqida keng materiallar topildi. Xalqning og'ir turmush, iqtisodiy nochorlikka qarshi kurash, xalq qo'zg'alonlar, uning natijalari haqida fikrlar tarixiy manbalar asosida bayon etildi. Sharqiy Buxoro bekligi haqida tarixshunoslik fanida qayd etilgan asarlar ma'lum ma'noda bo'lsada uni o'rganish, tarjima qilish nihoyat darajada kam. Ushbu ishda ma'lum ma'noda tarixiy voqelikka e'tibor berilib, masalani yoritishga harakat qilindi.

O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodi siyosati davriga xos XIX asr boshlarida Buxoro amirligida feodal munosabatlar hukm surib, o'rta asr qoloqligidan hali-hali burilmagan edi. Jumladan Sharqiy Buxoro bekliliklari Sherobod, Denov, Boysunda ham o'zaro ichki nizolar va qonli urushlar te-tez uchraydigan hodisalarga aylanib qolgan edi. Ahmad Donishning yozishicha, «Amr Haydar hukmdorligi davrida har 3-6 oyda uzluksiz o'zaro urushlar bo'lib turardi. XIX asrning boshlarida Sherobod, Denov bekliliklaridagi shahar va qishloqlar talanib, vayron etilar, chorva molar va odamlar haydab olib ketilar, suv va qishloq xo'jaligi vayron qilinib, izdan chiqarilar edi. Bu nizo-janjallar beklar o'rtasidagi kelishmovchilikka borib, katta janjallarga aylanib ketardi. Shunga qaramay bekliliklarda hayot o'z oqimi davom etaverardi. Sherobod, Denov bekliliklarining asosiy boyligi yer bo'lib, u amir yoki saroylari, bek, amlakdor, oqsoqol vaqf yerlaridan iborat bo'lgan. Beklikdagi amir yerlari mulki sultoni bo'lib, Sherobod bekligini Sariq, Xo'jaqiya, to'g'iz, To'p, Yurchi qishloqlarida, Denov bekligini Xayrabod, To'p, Yurchi qishloqlarida bu mulklar mavjud edi. Xususiy yerlar «mulk», masjid, madrasa yoki mozorlarga nazr-niyoz qilingan yerlar «vaqf» deb atalgan. Amir yerlari P.P.Ivanovning yozishicha, «... amloki poshoi yoki amloki sultoni» deb atalgan.

O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodi siyosati davriga oid Sharqiy Buxoro bekliliklarida xalqning turmush darajasini yaxshilash, madaniy saviyani ko'tarish, xalqning savodxonligini yuksaltirish, maorifni rivojlantirib, maktablar ochish, davolash muassasalarini qurish, milliy his-tuyg'ularni aks ettiruvchi kutubxonalarni tashkil etish, talantli yoshlarni o'qitish kabi savobli ishlarga amir hamda beklar umuman e'tibor bermasligi tufayli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot ancha turg'unlik holatida edi. Insonparvarlik, xayr-saxovat, ehsonlar o'tkazish, faqat xalqning tashabbusi, ziyolilarning shior va tashabbusi bilan amalga oshirilgandir. Shu tufayli Sherobod, Denov, Boysun bekliliklarida ham boshqa bekliliklar kabi ko'chalarda, bozor, madrasa, masjidlar yonida o'nlab qashshoq, och-yalang'och, maxov, turli xil atrofdagi talonchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Sharqning eng dahshatli kasalliklaridan biri «Maxov» Buxoro amiri va beklarni hech qanday bezovta qilmas, kasalliklarni, ochlikni oldini olish borasida deyarli amaliy ishlar qilinmas edi. Kasalliklar va ularning ko'rinishiga ko'nikib qolishgan beklilik hokimiyati rahbarlari Buxoro amiri topshirig'i bilan «Maxov» kasallarni maxsus qishloqlarga yig'ishib, o'sha yerda tiriklay yemirilar, sog'liqlari yomonlashib jon bergan.

O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodi siyosati davriga xos manbalarda Sharqiy Buxoro bekliliklarida iqtisodiy nochorlik, tabiiy iqlimning issiqligi, tez-tez obi havoning ifloslanib turishi, chang-to'zonlarning haddan tashqari ko'p bo'lishi, qum va barxanlarning ko'chishi odatiy holga aylanib qolgan edi. Bunday og'ir iqtisodiy va tabiiy iqlimni o'zgartirish uchun uni amaliy jihatdan yaxshilash masalasida bekliliklarda bironta ham amaliy ishlar qilinmadi. Natijada og'ir turmush tarzi tufayli minglab kishilar asosan yozda ayanchli ahvolda o'lib ketishi yoki mayib-majruh bo'lib qolishi oddiy bir hodisaga aylanib qolgan edi. Boysun, Sherobod, Muzrabod, Angor, SHo'rchi, Jarqo'rg'on hududlarida epidemiya kasalliklari XIX asrning boshlarida keng tarqalganligi, Bandixon, Qiziriq, Kattaqum atrofidagi qishloqlarda ommaviy o'limdan aholining ko'pchilik qismi qirilib ketganligi qayd etiladi. Surxondaryo yonidagi qishloqlarda bezgak va isitma kasalligining avjiga chiqib ketishi natijasida Jaloyir, Kokaydi qishlog'ining aholisi ayniqsa ko'p aziyat chekdi. Bo'qoq kasalligi, surunkali kamqonlik, bel va qo'l oyoqlarning qiyshayishi mahalliy aholini butunlay halokatga olib kelgan. Hattoki, mahalliy xalq Surxondaryo, Amudaryo qirg'oqlarida ko'llar tashkil qilsa hambu yerlarda raxit bo'qoq isitma, bezgak va vabo kasalliklari uyasiga aylandi.

O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodi siyosati davriga talluqli XIX asr boshlarida Sharqiy Buxoro bekliliklarida tabiiy yer soti boyliklarga boy bo'lib, mineral o'g'itlar bilan bog'liq boyliklar Ko'hitang, Hisor, Bobotog', Boysuntog'da

nihoyatda ko'pligi ma'lum bo'lsada, biroq undan foydalanish imkoniyatidan bekliv hokimiyati foydalana olmagan. Sherobod, Boysun tog' tizmasi va Hisor dovoni janubiy tizmasi ancha boydir. Mahalliy hunarmandlar XIX asr boshlarida temir, qo'rg'oshin, toshko'mir va neft mahsulotlardan qisman foydalanib kelar edi. Kokaydi, Jarqo'rg'ondagi neftdan mahalliy aholi (moyli suv) yoqilg'i va ko'z kasalliklarini davolash maqsadida foydalanishgan. Xovdak, Kokaydi neft suvlarda mahalliy cho'milib tabiiy shifo topgan, shu tufayli xalq bu neft-ko'mir aralash suvlarni muqaddas hisoblagan. Sherobod, Termiz oralig'idagi qumlardan qo'y terisida ibtidoiy usul bilan yuvish orqali har bir oltin tozalovchi 4 tangadan 6 tangagacha (1 tanga kumush bilan 20 tiyin bo'ladi) oltinni tozalash (yuvish) bilan ajratib olingan.

O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodi siyosati davriga taluqli Sharqiy Buxoro aholisi o'rtasida keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish, xalqning sog'ligini saqlab, ishonchiga sazovor bo'lish maqsadida inglizlar, Hindiston orqali Sherobod, Denov, Yurchi, Boysun shaharlarida o'zlarining jamiyatlari orqali amaliy yordam ko'rsatishga kirishdi. Chunki mahalliy aholi orasida chechak kasalligi keng tarqalib, aholini chekka qarshi emlash ishlari amalga oshirildi. 1880-1895 yillarda aholi orasida o'tkazilgan emlash natijasida chechak kasalligi ancha kamayib, mahalliy aholisi orasida chechakka qarshi emlashni o'rganib olgan vakillar ham yetishib chiqdi. Angliyadan keltirilgan chechakka qarshi dorilar Afg'oniston savdogorlari orqali olib kelinib, uning sifati 1900 yilda Rossiyadan keltirilgan doriga nisbatan ancha sifatli edi. Rossiya tashqi ishlar Vazirligi Buxoroda siyosiy vakolat boshqarmasini tashkil etib, Buxoro amirligi hukumati bilan shartnoma imzolab buxoro, Termiz, Kerki, Kelif shaharlarida mahalliylik rus fuqarolariga xizmat ko'rsatuvchi rus-mahalliy kasalxonalarini, ambulatoriya markazlarini, maxsus dori-darmon sotuvchi davolash markazlarini ochdi. Ochilgan kasalxonalar, chegara bojxona xizmati postlaridagi davolash muassasalari mahalliy aholiga pullik xizmat ko'rsatishni ham tashkil etdi. 1898-1899 yillarda tashkil etilgan ushbu davolash muassasalariga zaruriy mablag'ni Buxoro amiri o'z hisobidan to'ladi. Ushbu xarajatlar atigi 2 ming so'm pulni tashkil etib, bu oddiy xarajatlarni ham qoplamas edi.

O'rta Osiyo davlatlarining nihoyatda yer osti boyliklari ko'p bo'lib, cheklanmagan boyliklarga ega bo'lsada, temir, mis, qo'rg'oshin, osh tuzi, shaffof va qator boshqa tabiiy boyliklar qazib olish ochiq usulda imkoniyatlardan foydalanilmadi. Turli rangdagi marmar konlari, yuqori sifatli qimmatga ega bo'lgan yashma, malaxit va havo rangli kumush nitrat barcha yerda uchraydi. Samarqand-Termiz pochtraktida (yo'lida) va Darband oldida marmar qoyalar

nihoyatda ko'p bo'lsada, Buxoro amirligi va Boysun bekligida bu tabiiy boyliklarni qayta ishlash imkoniyatlari ishga solinmadi. Boysun va Sherobod beklklarida mavjud ochiq usuldagi tabiiy boyliklardan umuman ishlab chiqarishni rivojlantirishga, iqtisodiy qudratni rivojlantirish uchun sarf qilinmadi. O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodi siyosati davriga oid Buxoro amirligidagi ichki tartibsizliklar, hukmdorlar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash, urug'-qabilachilik nizolari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga jiddiy salbiy ta'sir o'tkazdi. Natijada mamlakatning kelajagini o'ylab ish yuritish haqida fikr-mulohazalar yo'qligi tufayli sanoat va hunrmandchilik rivojlanishiga e'tibor berilmadi. Boy ichki va tashqi imkoniyatlar hisobiga olinmadi. Xalqning talab-ehtiyojlarini qondirish, madaniy savodxonlikni oshirish masalasiga jiddiy ijobiy yordamlashilmadi. Buxoroda mamlakat taraqqiyotini o'ylovchi ma'muriy hokimiyatning yo'qligi tufayli, yo'llar xarob bo'lib, ko'priklar eskirib, buzilib, suv tarmoqlarini qurish, qayta ta'mirlash, mavjud imkoniyatlardan foydalanishga o'z holiga tashlab qo'yildi. Mamlakat xazinasiga o'z holiga tashlab qo'yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimov M., Shokirov I. El o'g'li. -T., O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2004 yil 78-B.
2. Azimov M. Surxondaryo ijodkorlari (IV asrdan XX asr boshlarigacha) Qarshi. "Nasaf" nashriyoti, 2006 yil.
3. Axmedjanov G. Rossiyskaya imperiya v Sentralnoy Azii (Istoriya i istoriografiya kolonialnoy politiki sarizma v Turkestane), -T., «Fan», 1995.
4. Aminova R.X. Velikoye narodnoye dvijeniye v irrigatsionnom stroitelstve Uzbekistana (1939-1940 g.g.), -T., 1963, Agrarniye preobrazovaniya v Uzbekistane v godi perexoda sovetского gosudarstva k NEPu. -T., «Fan», 1965 g; Agrarniye preobrazovaniya v Uzbekistane nakanune sploshnoy kollektivizatsii. (1925-1929 g.g.), -T., « Fan», 1969.
5. Avliyoqulov Q. Ergashev R. Ismoilov Y. Surxon yulduzlari. -T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1995, 87-B.